

Namiq Kamolning “Xorazmshoh Jaloliddin” dramasida Jaloliddin Manguberdi obrazi tahlili

Karimova Shahnoza
Адабиётишунослик, 2 kurs

Namiq Kamol Tanzimot davri dramaturgiyasida ozodlik, vatanga bo'lgan muhabbat, fidoyilik, vijdon va or-nomus kabi muqaddas tuyg'ularni birinchilardan bo'lib badiiy asarning markaziga qo'ygan ijodkor sifatida sezilarli iz qoldirdi. Uning dramalari izdoshlarining ijodidan farqli o'laroq faqatgina maishiy mavzular bilan cheklanibgina qolmay, zamonasining dolzarb mavzularini ham qamrab oldi. Namiq Kamol ijodiga mansub dramalar nafaqat ijtimoiy-siyosiy ko'lamda ahamiyatli, balki badiiy jihatdan ham puxta va o'quvchiga estetik zavq bag'ishlovchi asarlar hisoblanadi. Uning “Jaloliddin Xorazmshoh” dramasi ham bundan mustasno emas. Drama sahna uchun emas, balki o'qish uchun mo'ljallangan bo'lib, so'nggi Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdining hayoti, uning shaxsi va xarakteri, shaxsiy hayoti bilan bir qatorda, qahramon yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy ahvol, Jaloliddinning siyosiy arenadigi harakatlarini mohirona tarzda ochib bergan badiiy asardir. Asarda Jaloliddin Manguberdining Chingizxon qo'shinlari bilan olib borgan ayovsiz janglari to'liq yoritib berilgan va kitobxonni yanada qiziqtirish maqsadida asarni turli xil tarixiy mojarolar, hikoyalar va saroy fitnalari bilan boyitilgan. Ushbu drama o'n olti pardadan iborat bo'lib, xronotop jihatidan Xorazmshohning Chingizxon qo'shinlaridan qochoqlik qilib chekingan davrdan to Jaloliddinning halok bo'lishigacha bo'lgan davrni qamrab olgan.

Ma'lumki, drama janrida har bir obraz o'z xarakteriga xos xislatlari o'z tili, xatti-harakati orqali ochadi va muallif nutqi faqat remarkalarda beriladi. Kitobxon yoki tomoshabin dramada sodir bo'layotgan voqealarni qahramonlarning o'zidan payqab oladi. Binobarin, dramaturg o'z qahramonining hayoti haqida hikoya qilmaydi, balki ularni harakatda ko'rsatadi. Dramadagi barcha harakatlar, konflikt va dialoglar qahramonlarning xarakterini ochishning asosiy vositalari sanaladi.¹ Demak, dramaning asl mohiyatini kitobxonga yetkazishda undagi har bir qahramonning nutqi va harakati katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli Namiq Kamol aynan drama janrida ijod qilishni sevgan, u o'z g'oyalarni yetkazishda dramaning imkoniyatlari yetarli deb bilgan va ulardan unumli foydalangan. Turk xalqining teatr tomoshalariga ko'p bormaganliklari sababli adib o'z dramalarini o'qish uchun mo'ljallab yozgan degan tahminni ilgari surmoqdamiz.

Adibning maqolalari va boshqa dramalaridan uning ijodi asosan mafkuraga xizmat qilgani kuzatiladi. Bu o'sha davr uchun tabiiy holat edi, davrning ko'plab ziyolilari mamlakat rivojini faqat xalqni ilm va ma'rifatga chorlab, saviyasini oshirishda ko'rganlar va bu ulug' g'oyani amalga oshirishda adabiyotga eng katta yukni yuklaganlar. Adabiyot orqali milliy g'urur, vatanpavarlik kabi tuyg'ularni yetkazganlar, adabiyot orqali ona yurt tarixini “o'rgatganlar” desak xato bo'lmaydi. Namiq Kamolning “Vatan yohud Slistra” va “Jaloliddin Xorazmshoh”

¹Ibrohimova SH. Turk dramaturgiyasi. - T. 2016. – B.

dramalari shunday asarlar jumlasidan. Uning “Jaloliddin Xorazmshoh” dramasi ham turk xalqiga shonli tarixni o‘rgatuvchi, o‘quvchida milliy iftixor va vatanga bo‘lgan muhabbatni orttirishi bilan ahamiyatli. Undagi Jaloliddin obrazi esa ideal shahzoda tipiga ko‘tarilgan. Ushbu maqolada biz pyesaning boshqa jihatlarini tahlil qilishdan yiroqmiz, maqolada asosiy urg‘uni Jaloliddin Manguberdi obraziga berib uni badiiy tahlil qilishga urindik.

Asar bosh qahramoni Jaloliddin Manguberdi sharq dunyosida Islom dini rahnamosi, musulmon xalqlar himoyachisi sifatida e‘tirof etilgan edi. Buni o‘sha davr va keyingi yillar tarixiy manbalarida ko‘rishimiz mumkin. Xususan, Mavlono Kamoliddin Isfaxoniy Sulton Jaloliddin madhiga qasida aytgan bo‘lib, uning bir bayti ushbudir:

Jalol ad-dunyo va-d-din Mangburni on shohe,
Ki izadash bar sazo kard dar jahon sulton.

Tarjimasi:

Dunyo va din Jaloli Mangburni ul shohim.
Xudo uni jahonda sulton bo‘lishga sazovor qildi.

Tu umri Nuh biyobi az onki dar olam.
Imorat az tu padid omad, az pasti to‘fon .²

Tarjimasi:

Sen Nuh umrini topajaksin, chunki olamda,
To‘fondan so‘ng sen imorat barpo qilding.

Yuqorida keltirilgan baytlardan ma‘lumki Jaloliddin din oldidagi xizmatlarini zamonasida yuksak e‘tiborga sazovor bo‘lib, hatto uning zamoni Nuh payg‘ambar davridagi zamon bilan tenglashtiriladi. Namiq Kamol esa Jaloliddining ushbu xislatlaridan kelib chiqqan holda uni o‘z g‘oyalarini ifodalash uchun obraz sifatida ko‘rgan. Uning Jaloliddini oilasi, xalqi, vatani va dini oldida o‘z jonini fido qilguvchi ideal shoh timsolida namoyon bo‘ladi, o‘quvchi bunga asarning ko‘p qismlarida guvohi bo‘ladi. Asarning dastlabki pardalaridanoq mamlakatdagi og‘ir siyosiy vaziyatni o‘quvchiga yetkazib berish maqsadida adib Jaloliddinni hatto suyukli yori bilan suhbat chog‘ida ham fikr-u xayolini mamlakat taqdirida va padarining mamlakatni tashab jon saqlaganlidan chuqur qayg‘udaligini ko‘rish mumkin.

“ – Söyle! Söyle! Aradığım gibi bir padişah istediğim gibi bir peder tavsif ediyorsun! Kain pederimin mert olduğunu düşünüyorum da gönlüm biraz müteselli oluyor. Keşki ben de senin kadar bahtiyar olaydım. Pederim vahimesinin yolunda devletini feda edeceğine beni devletin yoluna feda edeydi...”³

Tarjimasi: “So‘yla, so‘yla! Meni orzumdagi podshohni, istagimdagi otani tasvirlayapsan. Qayinotamning mard ekanliklarini bilmoqdan ko‘nglim oz bo‘lsada taskinlik topyapti. Koshki men ham senin kabi baxtiyor farzand bo‘la olsaydim.

²O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon nomidagi Sharqshunoslik instituti. Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi. T. 1999. – B. 12

³Kemal N. Celaliddin Harzemshah. Inkilap yayın evi –İstanbul. 1960. B19

Otam o‘z vahimalari yo‘lida davlatni fido qilish o‘rniga meni fido qilsalar tuzuk edi...”

Otasi Chingizxon qo‘shinlaridan qochib orolda jon saqlayotganda Jaloliddin ham jon saqlab, o‘z manfaatlarini ko‘zlab tinch hayot kechirsa bo‘lar edi. Ammo Jaloliddin bu toifa insonlardan emas, Vatan himoyasi yo‘lida otasining rayiga ham qarshi chiqishga botina oladigan jasur shahzoda timsolida kelgan. Jaloliddin otasini bir necha bor to‘g‘ri yo‘lga boshlashga ham harakat qiladi, u Islom rahnamosi sifatida musulmonlarni og‘ir kunda tark etishni hazm qila olmaydigan shahzodani tasvirlar ekan, dastlab Jaloliddinni mavjud siyosiy vaziyatga nisbatan sentimental inkor etishi (voqeadan ichki norozilik tuyg‘usu mavjud bo‘la turib hech qanday qarshilik qilmaydi) bilan cheklab turgan holda ma‘lum darajada uni faol qarshilik ko‘rsatuvchi obraz sifatida ham ko‘rsatadi. Bu uning otasi bilan suhbatida ko‘rinadi:

“ – Saymaktan diliniz dolaşmazsa hepsini sayınız! Yirmi iki senedir kılıç kuşanmış kırk, elli muharebe kazanmış birkaç kere mağlubiyet halini tecrübe etmiş bir cihangir iken mülkünüzü, vatanınızı, namusunuzu, dininizi ateş içinde, canavar ağzında, düşman ayağı altında, şeytan elinde bıraktınız da bozulmuş ordudan firar ettiniz. Yarı dünya dolusu insanın helakine sebep oldunuz”⁴.

“ – Tilingiz aylansa barchasini sanang! Yigirmi ikki yildan beri qilich o‘ynatgan, qirq, ellikdan ziyod janglarda g‘alaba nashidasini surgan, bir necha bor mag‘lubiyat nimaligini ham bilgan jahongir bo‘la turib, vataniningizni, nomusingiz, dinigingizni jahannam olovida, mahluq og‘zida, dushmanning oyog‘i ostida, shayton qo‘llarida tashlab, tarqoq qo‘shinlardan qochib berkindingiz. Bir olam insonning o‘limiga sababchi bo‘ldingiz”. Guvohi bo‘lganingizdek ijodkor Jaloliddin obrazini otasini to‘g‘ri yo‘lga undovchi da‘vatlar bilan faol harakatga kechadi”.

“ – Keşke atlarımızla beraber yerin dibine geçeydik!”⁵

“ – Koshki otlarimiz bilan birgalikda yer qa‘riga kirib ketsaydik!” - deb uning bu mavzudagi his-tuyg‘ularini yorqinroq ifodalaydi. Zamonasining ziyoli ideallarini Jaloliddin obrazida mujassamlashtiradi, uni adolatparvar, haqqparvarlik xislatlarini yaqqol ko‘rsatgan. Uning nutqida otasining qo‘rqoqligi qanday talofatlarga olib kelganligini tushuntirib, uning ushbu qilmishini nomussizlik bilan tenglashtiradi. Hatto bir burchakda berkinib o‘tirishdan ko‘ra jang vaqtida yerga botib halok bo‘lgan otlarning holatini o‘zinikidan yaxshiroq bo‘lishini bildiradi.

Yozuvchi ushbu dialoglarni bo‘lib o‘tgan voqealarda Jaloliddinning zarracha aybi yo‘qligini ko‘rsatib o‘tish maqsadida keltiradi. Jalloddin millat va mamlakat taqdiri uchun o‘zini yaratgan oldida javobgarligini xis qilib turadi. U Jaloliddin Manguberdi timsolida mujassamlashgan xislatlardan o‘z g‘oyalarini yetkazish yo‘lida mohirona foydalanadi. Adib turk, xususan, musulmonlarga tanish shahidlik tushunchasini ilgari ko‘rinmagan jilvada beradiki, turk va musulmonlar uchun tanish shahidlik tushunchasi, Jaloliddin Xorazmshoh yordamida Vatanni himoya

⁴Kemal N. Celaleddin Harzemşah. Inkilap yayın evi –İstsnbul. 1960. B30

⁵ Kemal N. Celaleddin Harzemşah. Inkilap yayın evi –İstsnbul. 1960. B 45

qilishi, uni og'ir kunlarda bir yoqadan bosh chiqarib uni himoya qilish asli katta unvonlarga loyiq deb topadi.

“Biz burada birkaç merdin yüzünü güldürüyoruz. Felek ötede bir kaç milyon kadın, yetim çocuk ağlatıyor. Hepsinden ben mesulum. Cenab ı Hak hepsini benden soracak. Ah!.. Keşki pederim hayatta olaydı da ben padişahlığa bedel emri altında bir asker buluna idim! Bari yalnız yaptığım işten mesul olurdum. Yapmadığım şeylerin olsun mesuliyeti bana ait olmazdı”⁶.

Tarjimasi:

“Biz bu yerda bir qancha erkak bilan faxrlanar ekanmiz. Bu tarafda bo'lsa falak bir necha milyon yetim bolalarni yig'latyapti. Bularning barchasiga men mas'ulman,Alloh barchasini mendan hisobini so'raydi. Oh! Otam tirik bo'lsalar edi.”

Adib Jaloliddin Manugberdini faqatgina siyosiy sohadagi ustunliklarinigina emas, balki suyuqli yor, mehribon o'g'il va mas'uliyatli ota sifatida ham ko'rib uning ushbu xususiyatlarini ham yoritib beradi. Yozuvchi Jaloliddinning malika Neyyirega nisbatan his qilgan tuyg'ularini, unga bo'lgan sadoqat-u vafosini o'ziga xos sharqona ibo bilan ifodalaydi. Uning malika Neyyire bilan bo'lgan dilkash suhbatlari va dil izxorlari o'quvchini sexrlab qo'yadi. Neyyirening Sin daryosida halok bo'lgan davriga qadar o'quvchini ular orasidagi munosabat va o'zaro sevgi va muhabbat bilan tanishtiradiki, o'quvchi Jaloliddin uchun Neyyiredan voz kechishi nechog'li og'ir bo'lganini, uning shunchaki bir malika emas, balki sevikli rafika ekanligini tushunib yetsin. Sulton Jaloliddin obrazining yaxlitligi uning Nayyeraga bo'lgan tuyg'ulari bilan taminlangan desak xato bo'lmaydi. Chunki keng ommaga tarix kitoblaridan Jaloliddin o'z oilasidan vatan ozodligi uchun voz kecha olganligini ma'lum, bu yo'qotishning ruhiy tarafini faqat badiiy adabiyot yaqindan chuqur yoritib bera oladi. Adib Jaloliddin obrazini faqatgina uning nutqi bilangina yoritmay, balki boshqa qahramonlar tili bilan ham Jaloliddin obrazini yaxlit bir holga keltiradi. Ayniqsa, unga oshiq bo'lgan ikki ayolning nutqida Xorazmshoh tasviri eng go'zal ko'rinishda namoyon bo'ladi.

“Bir de duman yarıldı. Ne göreyim? Meğer o kara buluttan bir mehtap! Mehtap değil gül çehrelî, insan kıyafetinde bir melek saklı imiş, Bir melek, ki insan kıyafetine girmiş, de yine melekliği yüzünden akıyor. Gözlerimi bir türlü Cemalimden ayırmak mümkün olmadı. Dalmışım. Hayran hayran halini tavrını seyrediyorum. O kadar dalmışım ki, çadırın önüne dökülen kanlar ayağıma gelmiş, eteklerime bulaşmış da haberim yok! Bir de hemen gözümün önünden kayboldun. Gittin! (Malika Neyyirening nutqi)”⁷

Tarjimasi: “Birdan tuman ochildi. Bu nima bo'lishi mumkin? Bulutlar orasidan ko'ringan mohitob! Quyosh emas, balki gul chehrali inson siymosida farishta yashiringan ekan. Bir malakki, inson qiyofasiga kirgana bo'lsa ham, yuzidan farishtalik nuri yog'ib turar edi. Ko'zlarimni Jamolimdan hech ham uza olmadim. Xayol surib qolibman.Uning ko'rinishini hayratlanib tomosha qilyapman. Shunchalik berilib ketibmanki, to'kilgan qon chodirning yonigacha

⁶ Kemal N. Celaleddin Harzemşah. Inkilap yayın evi –İstsnbul. 1960. B78

⁷Kemal N. Celaliddin Harzemşah. Inkilap yayın evi –İstanbul. 1960.

oqib kelib, etagimga ham yuqibdi, sezamb man ham! Birdaniga ko'z o'ngimdan g'oyib bo'lding. Ketting!"

“ Harzemilerin hendek kenarına hucumlarını seyrediyordum. Karşımızdaki ağacın altında kalınca dayanmış biri duruyordu. Bi surette, bir mehabette duruyordu ki, güya kılıcının ucu şu koca dünyanın göğsüne basmış da lisan-ı hal'ıyla fermanıma ram ol; ayağımın altındasın diyordu;... Orduda yanan meşalelerin kızıllığı yarı endamını tenvir etmiş, bir tarafını o ziyanın koyu bir in'tafiyle mümteziç bir mahsüs karanlık tutmuş da pış- ı nazarda o kadar aşıkane o kadar garip birle levha - temaşa peyda olmuş idi ki, görmeyenlere tarif etmek değil, görenler için ayniyle hafızaya nakşetmek bile kabil değildir. Bilmem bilir misin? Bazı letafetler vardır görmek mümkün olamaz. Ben o simayı gördüm. Öyle bir zamanda gördüm ki, ruhuma ne kadar kuvvet, ne kadar kabiliyet varsa hepsi nokta-i nazarıma toplanmıştı. Güneşten biraz karmış bir halde ki, güneş cenge haset etmiş, revnakını azaltmaya çalışmış, yahut ki, afıtabın ziyası bile nur-ı cemaline tekarrub edince karanlık görünmeğe başlamış sanırsın; O da bizim kadar bir insan, fakat bizim kadar bir insan görünürken bütün dünyadan büyük, bütün dünyayı himmetinin tazyiki altında ezmeğe muktedir bir vücut olduğunu her halinde, her revişinde tecessüm edip duruyordu”⁸. (Malika Mehri Jahon nutqi)

Tarjimasi: Xorazmliklarning xandoq devoriga hujumlarini tomosha qilayotgan edim. Ro'paramizdagi daraxtga bir kishi suyanib turgan edi. U shu qadar chiroyli va ko'rkam ko'rinar ediki, go'yo qilichining uchi shu katta dunyoning yelkalariga tegib turar edi, hol-i lisoni esa menga bo'ysun, oyoqlarim ostidasan deyayotgandek edi. Qo'shinlarning o'tidan tushayotgan yorug'lik uning bu yorqin suratini yoritib tursa, bir qismi esa qorong'ilikda sirli bo'lib turardi, uning bu ko'rinishi shu qadar go'zal ediki, ko'rmaganlar uchun ta'riflash bir yoqda tursin, ko'rganlar xotirasida muhrlashi mushkul edi. Qiziq, bilarmikinsiz? Bazi go'zalliklarni ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi. Men anu shu siymoni ko'rdim. Shunday bir vaziyatda ko'rdimki, vujudimdagi butun quvvat va kuch bir nuqtaga to'plangandek go'yo. Misli quyosh, ammo uning yuzi quyoshdan ham yorqinroq ki, quyosh uning yorug'ligiga xasad qilgandek. U ham bir inson ammo bir inson bo'la turib, har holatida bizdan ustun, dunyodan ustundek”

Yuqorida ikki malikaning Jaloliddinga bo'lgan tuyg'ularining izhorini keltirdik. Har ikki nutqni bir nuqta birlashtiradi, u ham bo'lsa ikki oshiqning Jaloliddini bu dunyodan emas, uni boshqa insonlardan ustun xislatlari borligini ko'rishlaridadir. Malikalarning biri uni oy nuriga qiyoslasa, ikkinchisi hatto quyosh ham u bilan bellashmoqchi bo'lib yengilgandek deya Xorazmshohga ta'rif beradi. Har ikki nutqdagi yana bir o'xshashlik, har ikki malikaning Jaloliddinni farishta va quyosh-u oyga muqoyasa etib, uni shu bilan birga oddiy inson ekanligini ham bildirishdir. Fikrimizcha, adib ushbu ikki oshiq malikaning dil izhorini bunchalik mazmun jihatidan o'xshash qilib berishida ham shoirning o'ziga xos badiiy mahoratidan dalolatdir. Dramada Neyyirening davlat va din yo'lidagi qurbonligiga taqdir mukofot sifatida Mehri Jahonni uchratadi. Tangrining inoyatini qarang-ki, Jaloliddin bir ko'riboq oshib bo'lgan Tabriz malikasi bir

⁸Kemal N. Celaliddin Harzemshah. Inkilap yayın evi –İstanbul. 1960.

tomchi suvdek sultonning ilk sevgisi Neyyirega o'xshaydi. Bu holat esa drama qahramonlari tomonidan Allohning Jaloliddinga bo'lgan sevgisining isboti sifatida e'tirof etiladi. Mohir adib esa ushbu ikki malikaning o'xshashliklarini ularning Jaloliddinga bo'lgan sevgisida, ularning xatti-harakatlarida va nutqlarida aks ettiradi. Ularning biri Jaloliddinni oy nuriga, ikkinchisi esa quyoshga o'xshatishi ham bejiz emasdir, Jaloliddin avvliga Mehri Jahon timsolida faqat Neyyireni ko'radi, keyinchalik esa uni tamoman boshqa o'ziga xos bir insonligini tushunib yetadi, boshqa tarafdin olib qaraydigan bo'lsak, oy va quyosh biri tunni, biri kunni ifodalovchi bir-biriga zid tushunchalar bo'lishiga qaramay, oy nuri quyosh nurining aksidir, bu jihatdan bu ikki o'xshatish keng ma'noda bir narsani ifodalaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu dramaning asosiy g'oyasi turkiy xalqlar tarixida Jaloliddin Manguberdidek mard va jasur shahzoda yashab o'tganligi va o'z vaqtida bir qavm va dindin bo'lgan xalqlar dushmanga qarshi hamjihatlikda kurash olib borib, xoinlik qilmaganlarida Chingizxondek butun jahonni titratgan sarkardani ham yenga olishlari mumkin bo'lganini ko'rsatadi. Yozuvchi drama yozilgan davrdagi tarqoqlik yoqasida turgan turk xalqini bir yoqadan bosh chiqarishlarini va Jaloliddin Manguberdidek sarkarda bilan bir qavmdan ekanliklarini eslagan holda ularda g'urur va iftixor tuyg'ularini uyg'otish maqsadini qo'ygan. Dramaning kompozitsiyasi ushbu g'oya tomon yo'naltirilgan bo'lib, unda har bir unsur ushbu g'oyaga xizmat qiladi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kemal N. Celaliddin Harzemshah. Inkilap yayin evi, – Istanbul. 1960.
2. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon nomidagi Sharqshunoslik instituti. Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi. – T. 1999.
3. Ibrohimova SH. Turk dramaturgiyasi. – T. 2016.